



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI MASLAHATCHI SUMA CHAKRABARTI BILAN UCHRASHUV O‘TKAZDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev 23-fevral kuni iqtisodiy taraqqiyot, samarali boshqaruv va xalqaro hamkorlik masalalari bo‘yicha maslahatchi Suma Chakrabartini qabul qildi.

Maslahatchining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyatining asosiy yo‘nalishlari muhokama qilindi.

Xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, umumta‘lim muassasalari salohiyati va investorlar bilan strategik kommunikatsiyani rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Iqtisodiy islohotlar, davlat boshqaruvi, ta‘lim sohalaridagi ilg‘or xalqaro tajriba va strategik rejalashtirish amaliyotini izchil joriy etish muhimligi ta‘kidlandi.

Shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimiz investitsiya salohiyatini targ‘ib qilishni yanada kengaytirish masalasiga to‘xtalib o‘tildi.

O‘za

QISHLOQ XO‘JALIGI MASHINASOZLIGIDA MAHALLIY ISHLAB CHIQARISH KENGAYTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev qishloq xo‘jaligini maxsus texnika bilan ta‘minlash hamda sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida mexanizatsiya darajasi 81 foizni tashkil etmoqda. Jumladan, so‘nggi yillarda 1 ming 756 ta paxta terish mashinasi xarid qilindi va paxta terimining mexanizatsiya darajasi 52 foizga yetdi. O‘tgan mavsumda 2,1 million tonna paxta mashina yordamida yig‘ib olingan. Buning hisobiga keyingi besh yilda qo‘l mehnati 1,8 barobar qisqardi.

Navbatdagi vazifa — paxtani mashinada terish ulushini kamida 70 foizga yetkazish. Buning uchun 2026-yilda 800 ta paxta terish mashinasi, shuningdek, 6 mingta seyalka, traktor va kombayn xarid qilinishi rejalashtirilgan. Umuman, yil davomida 10 mingta yangi texnika xarid qilinib, qishloq xo‘jaligi texnikalari parki 292 mingtaga yetkazilishi ko‘zda tutilgan.

Yangi texnikalarni fermerlarga qulay shartlarda lizingga berish maqsadida xalqaro moliya institutlaridan 400 million dollar jalb qilinadi. Texnikalar milliy valyutada 2 yillik imtiyozli davr bilan 10 yilga 18 foiz stavkada berilib, kredit stavkasining 8 foizi budget hisobidan qoplab beriladi.

Taqdimotda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mashinasozligini rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni kengaytirish ustuvor vazifa ekani ta‘kidlandi.

2026-2028-yillarda mahalliy ishlab chiqariladigan texnika va agregatlar hajmini 5 barobarga, mahalliy lashtirish darajasini qo‘shimcha 10 foizga oshirish muhim ekani ko‘rsatib o‘tildi. Xususan, 2026-yilda ishlab chiqarish 6 ming donagacha yetkazilishi, 2028-yilga qadar mahalliy lashtirish ko‘rsatkichi o‘ziyurar texnikada 30-35 foizga, osma va tirkamali texnikada 60-65 foizga chiqarilishi rejalashtirilgan.

Texnika va agregatlarni sotib olishda subsidiyalashning amaldagi tizimini mahalliy lashtirish darajasi 25 foizdan yuqori bo‘lgan texnikaga tatbiq etilmoqda. Taqdimotda talab yuqori bo‘lgan 3 turdagi import texnika bo‘yicha ham subsidiya ajratishni yo‘lga qo‘yish taklif qilindi. Umuman,

joriy yilda texnika qiymatining 15 foizini qoplash uchun 660 milliard so‘m subsidiya yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan.

Taqdimotda Toshkent traktor zavodi faoliyatini sog‘lomlashtirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari ham ko‘rib chiqildi.

Sohada zamonaviy bank xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektga asoslangan yechimlarni joriy qilish borasidagi ishlar ham taqdimot qilindi.

2025-yilda “Agrobank” ATB tomonidan qishloq xo‘jaligi texnikasi uchun 1,6 trillion so‘mlik kreditlar ajratilgan bo‘lsa, joriy yilda bu ko‘rsatkichni 3,9 trillion so‘mga yetkazish ko‘zda tutilgan. Kreditlash jarayonlarini avtomatlashtirish natijasida kredit ajratish muddati 3 kundan 3 soatgacha qisqarishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, mijozlarga kompleks qishloq xo‘jaligi xizmatlari ko‘rsatiladi. Bunda har bir hududda bittadan agroxiizmat zonalari tashkil etiladi va ularda qishloq xo‘jaligi agenti faoliyat yuritadi. Ushbu zonalarda fermerlar bir joyning o‘zida bank, konsalting, monitoring, tuproq tahlili, ko‘chat yetkazib berish xizmatlari, agronom maslahatidan foydalanishlari, o‘quv kurslari haqida ma‘lumot olishlari mumkin bo‘ladi.

Bankning chorvachilik va mevachilikda, suvni sarfini “aqli” boshqarishda sun‘iy intellektdan foydalanish bo‘yicha pilot loyihalarni amalga oshirish, qishloq xo‘jaligida startaplarni moliyalashtirish maqsadida ustav kapitali 100 milliard so‘mlik yangi ventur kompaniyasini ta‘sis etish borasidagi rejaları ham ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari takliflarni ma‘qullab, qishloq xo‘jaligida mexanizatsiya darajasini yanada oshirish, mahalliy ishlab chiqarish va servisini rivojlantirish, raqamli platformalar orqali monitoring va moliyaviy xizmatlarni yaxshilash yuzasidan mutasaddilarga bir qator ko‘rsatmalar berdi.

O‘za

YIRIK ENERGETIKA LOYIHALARI TIZIM BARQARORLIGINI TA‘MINLAYDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev yirik energetika loyihalarini

amalga oshirish, energiya tizimi barqarorligini ta‘minlash va energiya samaradorligini oshirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Tanqidiy tahlil ruhida o‘tgan yig‘ilishda qayd etilganidek, mamlakatimizda elektr energiyasi bo‘yicha jami generatsiya quvvatlari 25,8 ming megavattga yetdi. Shundan quyosh, shamol va gidroenergetika 8 ming megavattni, ya‘ni umumiy hajmning 31 foizini tashkil etmoqda. 2026-yilda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini 90 milliard kilovatt-soatga yetkazish rejalashtirilgan bo‘lib, bu 2020-yilga nisbatan 40 foiz o‘shish demakdir.

Joriy yilda iqtisodiy o‘shish hamda tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmlarining oshishi hisobiga elektr iste‘moli yana 1 milliard kilovatt-soatga ortishi kutilmoqda. Shu munosabat bilan aholi va iqtisodiyot ehtiyojlariga mos ravishda energiya resurslarini uzluksiz yetkazib berish, tarmoqlarni yangilash, investitsiyalarni ko‘paytirib, yirik loyihalarni o‘z vaqtida ishga tushirish birinchi navbatdagi vazifa sifatida belgilandi.

Bugungi kun holatiga ko‘ra, yoqilg‘i-energetika majmuidagi investitsiya portfeli 133 ta loyihani qamrab olgan bo‘lib, umumiy qiymati 51,4 milliard dollarni tashkil etmoqda. Shundan 43 milliard dollarlik 73 ta yirik loyiha bo‘yicha tizimli yondashuv qilib, yil yakuniga qadar 6 ming 770 megavatt yangi quvvatlarni ishga tushirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Bu 2,8 ming megavatt quyosh, 2,5 ming megavatt issiqlik, 470 megavatt shamol, 68 megavatt gidroenergetika quvvatlari hamda 884 megavatt energiya saqlash tizimlaridir.

Biroq ayrim loyihalarni kelishish va yer ajratish bilan bog‘liq jarayonlarda turli sustkashliklarga yo‘l qo‘yilayotgani oqibatida mavjud loyihalarni kengaytirish hamda yangilarini boshlash orqaga surilayotgani tanqid qilindi. Mutasaddilarga yer ajratish va toifasini o‘zgartirish ishlarini tezlashtirish topshirildi.

Umuman, joylarda energetikani rivojlantirish va energotejamkorlikni ta‘minlashda Energetika vazirligi hamda hokimliklar yaqin hamkorlik va muvofiqlashuv asosida ishlashi zarurligi qayd etildi. Loyihalarni amalga oshirishda mahalliy ishlab chiqaruvchilar va mahsulotlar ishtirokini yanada kengaytirish muhim ekani ta‘kidlandi. 2025-yilda investitsiya loyihalarida mahalliy komponent ulushi 737 million dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2026-yilda bu ko‘rsatkichni 1 milliard dollardan oshirish maqsad qilingan.

Jumladan, o‘tgan yili transformator ishlab chiqarish zavodi ishga tushdi. Joriy yilda yangi turdagi kabel va muftalarni, shamol elektr stansiyalari minoralari va parraklarini mahalliy lashtirish loyihalarini ishga tushirish, energiya saqlash tizimlarini mahalliy lashtirish loyiasini boshlash rejalashtirilgan.

Davomi 2-betda

NEFT VA GAZ TARMOG‘IDAGI ISHLAR SAMARADORLIGI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha berilgan topshiriqlar ijrosi bilan tanishdi.

Joriy yil 30-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan taqdimotda kompaniya faoliyatida operatsion samaradorlikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash, geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirib, uglevodorod zaxiralarni ko‘paytirish bo‘yicha qator vazifalar belgilab berilgan edi.

Bugun davlatimiz rahbari bu boradagi ishlarining borishi haqida axborot bilan tanishdi.

Avvalo, kompaniya faoliyatida xarajatlarni maqbullashtirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar haqida ma‘lumot berildi. Jumladan, markaziy apparatning tashkiliy tuzilmasi qayta ko‘rib chiqilib,

optimallashtirilmoqda. Ishlab chiqarish xizmatlari, tovar va materiallar narxlari hamda pudrat ishlari bo‘yicha narxlamni qayta ko‘rib chiqish, kredit portfelini tartibga solish boshlandi. Sohaga oid bo‘lmagan aktivlar tasarrufdan chiqarilmoqda.

Davomi 2-betda



MAHALLA VA YOSHLAR JAMIYATNING IKKI TAYANCH USTUNI

O‘zbekiston siyosiy hayotida har bir yil nomi bejiz tanlanmaydi. Joriy yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e‘lon qilinishi ham tasodif emas. Chunki mahalla faqat ma‘muriy bo‘g‘in emas, balki yoshlar taqdiri, tarbiyasi va ijtimoiy muammolarini hal qilish maskani hamdir.

Mahalla asrlar davomida o‘zbek jamiyatining tayanch ustunlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu maskanda inson hayoti go‘daklikdan keksalikgacha davom etadi: bola shu yerda tug‘iladi, ulg‘ayadi, oila quradi, quvonch va tashvishlarini qo‘ni-qo‘shni bilan bo‘lishadi. Demak, mahalla shunchaki hududiy birlik emas, qadriyatlar, urf-odatlar, tarbiya va birdamlikni avloddan avlodga o‘tkazib kelayotgan ijtimoiy maktabdir.

Davomi 5-betda

IQTISODIY O‘SISH SIFAT JIHATIDAN YUQORI BOSQICHGA KO‘TARILMOQDA

Yaqinda davlatimiz rahbari raisligida tarmoq va hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ta‘minlashga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi mazmun-mohiyatiga ko‘ra, mamlakatimiz iqtisodiy siyosatining sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tayotganini ko‘rsatib bergan dasturiy muhokama sifatida namoyon bo‘ldi.

Bildirilgan fikrlar, qo‘yilgan vazifalar va tanqidiy mulohazalar iqtisodiy o‘shishga bo‘lgan munosabatda muhim burilish yuz berganini ko‘rsatadi. Endi iqtisodiy natijalar faqat yalpi ko‘rsatkichlar bilan emas, balki ularning mazmuni, barqarorligi va aholi hayotiga qay darajada ta‘sir qilayotgani bilan baholalanmoqda.

Agar avvalgi yillarda “Iqtisodiy o‘shish bormi-yo‘qmi?” degan savol ustuvorlik kasb



etgan bo‘lsa, bugun kun tartibida mutlaqo boshqa masala turibdi. Bu o‘shish qay tarzda, qaysi manbalar hisobidan va qay darajada sifatli

ta‘minlanmoqda? Aynan shu nuqta yig‘ilishning bosh g‘oyasini belgiladi.

2025-yil yakunlari mamlakat iqtisodiyotida

ijobiy tendensiyalar barqaror tus olganini ko‘rsatadi. Yalpi ichki mahsulot hajmi 7,7 foiz o‘shib, 147 milliard dollardan oshgani mintaqaviy va global sharoitni inobatga olganda salmoqli natija hisoblanadi.

Biroq videoselektor yig‘ilishida asosiy e‘tibor aynan shu raqamga emas, balki uning tarkibiga qaratildi. Iqtisodiy o‘shishning yarmidan ortig‘i xizmatlar sohasi hisobiga to‘g‘ri kelayotgani iqtisodiyot tuzilmasida chuqur o‘zgarishlar kechayotganidan dalolat beradi.

Qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan foydalanish samaradorligi va mehnat unumdorligi oshishi sohada miqdorga emas, iqtisodiy natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv yondashuvi shakllanayotganini ko‘rsatmoqda.

Alohida ta‘kidlangan masalalardan biri energiya samaradorligi bo‘ldi. Bir yil ichida bir dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratish uchun sarflanayotgan energiya xarajatlari 15 foiz kamayishi iqtisodiy siyosatda sifat o‘zgarishlari boshlanganini anglatadi.

Bu natijaga faqat tejamkorlik choralari bilan emas, balki ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalash, energiya resurslariga munosabatni tubdan qayta ko‘rib chiqish orqali erishilgan. Energiya samaradorligi masalasi yig‘ilishda alohida blok sifatida qo‘yilgani ham bejiz emas. Chunki sohada tejalgan har bir foiz iqtisodiyot uchun katta moliyaviy va ekologik samara beradi.

Davomi 3-betda



Diqqat, yangi loyiha: “Uy-muzeylarda” MUSIQA ILMINING XAZINABONI

Yunus Rajabiy ijodxonasiga sayohat

Mamlakatimizdagi keng ko‘lamli islohotlar jarayonida milliy xotirani asrash, xalqimizning boy madaniy merosini chuqur o‘rganish va targ‘ib etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda millatning buyuk farzandlari, ma‘rifatparvar ajdodlarimiz yashab ijod qilgan muqaddas go‘shalar — uy-muzeylar faoliyatini takomillashtirishga e‘tibor sezilarli orib borayotir.

Bugungi kunda yurtimiz bo‘ylab faoliyat yuritayotgan yigirman dan ziyod uy-muzey shunchaki eksponatlar majmuasi emas, balki

tarix va bugunni bog‘lovchi “oltin ko‘prik”, yosh avlod qalbid a vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiruvchi ma‘naviyat o‘choqlaridir. Ularda ajdodlarimizning nafasi, yuksak tafakkuri va xalqparvarlik ruhi yashaydi.

Davomi 6-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

YIRIK ENERGETIKA LOYIHALARI TIZIM BARQARORLIGINI TA’MINLAYDI

Boshlanishi 1-betda

Elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmi ortayotgan sharoitda uni iste'molchilarga o'z vaqtida yetkazib berish masalasi dolzarb ekan, lekin qo'shimcha yuqori kuchlanishli magistral tarmoqlari qurilmasa, generatsiya quvvatlarining iste'mol hajmidan oshib ketishi xavfi mavjudligi ko'rsatib o'tildi. O'tgan yili elektr tarmoqlarini rivojlantirishga ajratilgan mablag'larni o'zlashtirish sur'ati yetarli emasligi qayd etildi.

Shu munosabat bilan yaqin yillarda jami 602 kilometr uzunlikdagi "Tolimarjon — So'g'diyona", "Sirdaryo — Halqa" va "Qorako'l — Nurobod" liniyalarini, 2030-yilga qadar "Yangi Angren — Namangan" tarmog'i hamda "Namangan" nimstansiyasini qurish rejalari haqida axborot berildi. Toshkent shahrida 75 kilometr yuqori kuchlanishli tarmoqlar va 5 ta nimstansiya qurish, 69 kilometr tarmoq hamda 18 ta nimstansiyaning modernizatsiya

qilish, 638 kilometr past kuchlanishli tarmoqlar va 161 ta transformator shoxobchalarini modernizatsiya qilish topshirildi.

Qo'shni davlatlar bilan energetika tizimlarini integratsiya qilish hisobiga vodik viloyatlarida elektr ta'minotini yaxshilash rejalari ham muhokama qilindi. "Surxon — Pul-i-Xumri" yuqori kuchlanishli tarmog'i va uning nimstansiyalari qurilishini jadallashtirish vazifasi qo'yildi.

Energiya samaradorligi borasida hali ko'p ishlar qilinishi shartligi qayd etildi.

Soha va tarmoqlarda 2026-yilda elektr 4 milliard 378 million kilovatt-soat elektr energiyasi, 2 milliard 840 million kub metr tabiiy gaz tejash uchun tizimli va manzilli choralar ko'rish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Yirik korxonalarda ishlab chiqarish hajmini o'zgartirmasdan energiya sarfini kamida 10 foizga kamaytirish, tarmoqlar va ijtimoiy obyektlarda energiya samaradorligini oshirish

uchun 200 million dollar resurs jalb etish choralari belgilandi.

Respublika hududlarida issiqlik va kogeneratsiya markazlarini qurish dasturini ishlab chiqish hamda amalga oshirish topshirildi. Toshkent shahrining har bir tumanida bittadan kogeneratsiya markazini tashkil etish ishlari davom ettiriladi, Yunusobod tajribasi asosida hududlarda 7 ta kogeneratsiya markazlari quriladi. Issiqlik stansiyalari kuz-qish mavsumida barqaror ishlashini ta'minlash maqsadida ular uchun suyuqlashtirilgan gazni saqlash infratuzilmasini barpo etish masalasini o'rganib, takliflar kiritish topshirildi.

Yig'ilish yakunida Prezidentimiz strategik loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirish, magistral va taqsimlovchi tarmoqlarni jadal rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish yuzasidan qo'shimcha topshiriqlar berdi.

O'ZA

NEFT VA GAZ TARMOG'IDAGI ISHLAR SAMARADORLIGI KO'RIB CHIQILDI

Boshlanishi 1-betda

Shu bilan birga, debitor qarzdorlikni qisqartirish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilgani qayd etildi.

Geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish va uglevodorod zaxiralarini ko'paytirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarga ham to'xtalib o'tildi. Jumladan, 2026-2027-yillarda qator hududlardagi yangi maydonlarda qidiruv ishlarini kuchaytirish, 3D seysmik-qidiruv hajmlarini kengaytirish hamda quduqlarni qurilish bilan yakunlash rejalari belgilangani aytiladi. Shuningdek, joriy yil yanvar-fevral

oylarida ikkita yangi gaz kondensat koni ochilgani haqida ma'lumot berildi.

Kompaniyani strategik rivojlantirish doirasida forenzik audit o'tkazish, xaridlar jarayonlarini takomillashtirish, ESG tamoyillarini joriy etish hamda hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlash ishlari tezlashtiriladi.

Davlatimiz rahbari belgilangan vazifalar va rejalashtirilgan barcha tadbirlar ijrosini aniq hisob-kitob, qat'iy intizom hamda shaxsiy javobgarlik asosida ta'minlashni davom ettirish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

O'ZA



Nuqtayi nazar

TA'LIM SOHASIDAGI HAMKORLIK ALLAQACHON NATIJA BERMOQDA

O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi asosiy yutuq iqtisodiy sheriklik, uzoq istiqbolga mo‘ljallangan diplomatik munosabatlar va xalqaro siyosiy ishonchdir. Ayniqsa, AQSH Prezidentining O‘zbekiston rahbarini oliy darajadagi uchrashuvga taklif qilishi, ko‘p tomonlama kelishuvlarni imzolashi, mavjud hamkorlikni kengaytirishi va xalqaro maydonlarda uni “do‘st” deb e’tirof etishi bu — O‘zbekiston davlatchiligi tarixidagi muhim, ramziy va amaliy yutuqlardan biridir.

Bu galgi oliy darajadagi tashrif ham nafaqat ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy muloqotning navbatdagi bosqichi, balki O‘zbekiston — AQSH munosabatlarida inson kapitali, oliy ta’lim va ilmiy tadqiqotlar tobora markaziy o‘rin egallayotganini yaqqol namoyon etgan voqeaga aylandi.

Vashington shahrida o‘tkazilgan, ta’sischi davlatlaridan biri O‘zbekiston bo‘lgan Tinchlik kengashining birinchi sammiti global xavfsizlik, mintaqaviy barqarorlik va mojarolardan keyingi tiklanish masalalari bilan birga zamonaviy dunyoda bilim, tafakkur va ilmiy yondashuvning strategik ahamiyatini ham ochib berdi. Sammit O‘zbekistonning faqat mintaqaviy emas, balki global jarayonlarda ham mas’uliyatli va faol ishtirokchiga aylanganini ko‘rsatdi.

Tashrifning ilk kunlaridanoq iqtisodiy hamkorlik masalalari markaziy o‘ringa chiqdi. Prezidentimizning AQSH savdo vaziri Xovard Latnik bilan uchrashuvida ma’lum qilinganidek, bugun O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi o‘zaro savdo hajmi 1 milliard dollardan oshib ketgan, mamlakatimiz bozorida esa Amerikaning 340 ga yaqin kompaniyasi faoliyat yuritmoqda. Energetika, o‘ta muhim mineralar, transport, qishloq xo‘jaligi, axborot texnologiyalari va sanoat infratuzilmasi sohalarida qiymati 35 milliard dollar bo‘lgan uch yillik iqtisodiy hamkorlik dasturi amal qilmoqda. Bunday ko‘lamdagi loyihalar esa o‘z-o‘zidan yuqori malakali muhandislar, iqtisodchilar, moliyachilar va raqamli texnologiyalar mutaxassislarga talabni keskin oshirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, oliy darajadagi tashrif doirasida AQSHning asosiy moliyaviy institutlari bilan O‘zbekiston delegatsiyasi o‘rtasida bo‘lib o‘tgan uchrashuvlar oliy ta’lim va ilm-fan uchun alohida ahamiyat kasb etdi. Xususan, AQSH Eksport-import banki, Xalqaro moliyaviy taraqqiyot korporatsiyasi rahbarlari bilan uchrashuvlarda yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, yuqori texnologiyali uskunalarni joriy etish, tadqiqot markazlari va universitetlar bilan hamkorlikni kuchaytirish masalalari muhokama qilindi. Ayniqsa, O‘zbekiston va AQSH o‘rtasida Investitsiya platformasini tashkil etish to‘g‘risidagi bitim imzolanishi oliy ta’lim muassasalari uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Endilikda universitetlar ilmiy g‘oyalarni amaliy loyihalarga aylantirishda xalqaro moliya institutlari bilan bevosita ishlash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Davlatimiz rahbarining AQSH savdo vakili Jeymison Grir bilan uchrashuvida ham kadrlar tayyorlash masalasi bilvosita, ammo aniq his etildi. Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayonini yakunlash, texnik tartibga solish, raqamli savdo va logistika sohalaridagi hamkorlik mamlakatimiz oliy ta’lim tizimidan



Qo‘ng‘iroitboy SHARIPOV,
oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vaziri

mutlaqo yangi kompetensiyalarga ega mutaxassislari yetishtirishni talab qiladi. Oliy ta’limga qaratilgan talablar iqtisodiy islohotlar bilan ta’lim siyosati o‘rtasidagi bog‘liqlik qanchalik mustahkam ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, Vashingtonda o‘tkazilgan qo‘shma loyihalar taqdimoti va ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimida "John Deere", "Valmont Industries", "Gulf Oil", "BlackRock Financial Markets Advisory", "Oppeheimer" kabi yetakchi kompaniyalar rahbarlari ishtirok etishi ham bejiz emas. Mazkur kompaniyalar zamonaviy ishlab chiqarish madaniyati, ilmiy yondashuv va yuqori bilimga tayanadigan kadrlar orqali rivoj topgan. Demak, O‘zbekiston uchun bunday hamkorliklar nafaqat investitsiya, balki bilim transferi manbai ham hisoblanadi deyish mumkin.

Tashrifning siyosiy qismi esa Tinchlik kengashining birinchi sammitida o‘z ifodasini topdi. AQSH Tinchlik institutida bo‘lib o‘tgan yig‘inda davlatimiz rahbari G‘azo mintaqasini tiklash, gumanitar yordam va barqaror taraqqiyot masalalari haqida so‘z yuritir ekan, O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyat oldidagi mas’uliyatli pozitsiyasini namoyon qildi. Oliy darajadagi chiqish O‘zbekiston tashqi siyosatida insonparvarlik, ilm-fan va barqaror rivojlanish g‘oyalari muhim o‘rin tutayotganini ko‘rsatdi.

Mazkur tashrif O‘zbekiston tashqi siyosatining sifat jihatidan yangi bosqichga chiqqanini ko‘rsatmoqda. Mamlakat xalqaro munosabatlarda qisqa muddatli yoki bir tomonlama manfaatlardan voz kechib, global siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga mos ravishda, bilim, texnologiya va inson kapitaliga tayanadigan barqaror hamkorlik modelini

shakllantirmoqda. Binobarin, tashqi aloqalar milliy taraqqiyotning uzoq istiqbolli maqsadlari bilan bog‘lanib, davlat siyosatida tizimlilikni ta'minlamogda.

Xalqaro sheriklik munosabatlari endilikda savdo yoki diplomatik muloqot bilan cheklanmay, ta’lim, ilm-fan, innovatsiya va texnologiyalar sohalarida chuqur hamkorlikni talab etmoqda. Ilm-fanga va institutsionalizmga asoslangan hamkorlik iqtisodiyotni yuqori qo‘shilgan qiymat asosida rivojlantirish va yangi tarmoqlarni shakllantirish uchun sharoit yaratadi.

Ta’lim sohasidagi hamkorlik allaqachon amaliy natija bermogda. Toshkentda faoliyat yuritayotgan Webster University — O‘zbekistondagi ilk AQSH universiteti filiali sifatida o‘quv dasturlarini izchil kengaytirib, talabalar sonini yil sayin oshirmogda. Shuningdek, AQSHning Amerika texnologiyalar universiteti tashkil etilgani texnik, muhandislik, energetika, arxitektura va axborot texnologiyalari yo‘nalishlarini ikki davlat hamkorligining ustuvor sohalarida ifodalab berdi. Bugun O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi ta’limiy sheriklik faqat til o‘rgatish yoki talabalar almashinuvi bilan cheklanmay, ilmiy tadqiqot loyihalarini, startaplar, innovatsion laboratoriyalar, sun’iy intellekt va “yashil” texnologiyalar bo‘yicha qo‘shma tashabbuslarni qamrab olmoqda. Ayni paytda mamlakatimizda 40 dan ortiq oliy ta’lim muassasalari ushbu mamlakatning 25 dan ziyod universitet va ilmiy markazlari bilan memorandum asosida hamkorlik qilib, professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish, qo‘shma tadqiqotlar va ilmiy konferensiyalar o‘tkazishni tizimli yo‘lga qo‘yg’an.

Mamlakat taraqqiyotida ta’lim va inson kapitali rivoji hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, oliy ta’lim va ilmiy tadqiqotlar mamlakat



taraqqiyotining asosiy tayanchiga aylanmoqda. Universitetlararo akademik almashinuv va ilmiy tadqiqot ishlari keng yo‘lga qo‘yilayotgani bilim berish bilan birga ilmiy g‘oyalari va innovatsion yechimlar yaratiladigan hamkorlik muhiti sifatida shakllanmoqda. Oliy ta’lim tizimining ustuvor vazifasi esa xalqaro standartlarga mos, mustaqil fikrlaydigan va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdan iborat.

Insoniyat taraqqiyotining bugungi bosqichida geosiyosiy ziddiyatlar, mintaqaviy to‘qnashuvlar va ishonch inqirozi global munosabatlar tizimini murakkablashtirib bormogda. Bunday sharoitda tinchlik haqida gapirishning o‘zi yetarli emas. Uning mohiyatini anglash va amaliy siyosatga aylantirish muhim. Tinchlik vaqtinchalik murosas emas, balki barqaror taraqqiyotga xizmat qiladigan ongli tanlovdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, davlatimiz rahbarining AQSHga amaliy tashrifi hamda Tinchlik kengashi sammitidagi ishtiroki mamlakatimiz tashqi siyosatining mohiyatini ochib beruvchi muhim voqea bo‘ldi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot konsepsiyasi, avvalo, inson qadriini ulug‘lash, adolat va qonun ustuvorligiga tayanish, ochiq va pragmatik tashqi siyosat yuritish tamoyillariga asoslanadi. Bu tamoyillar faqat ichki islohotlar doirasida emas, balki xalqaro maydonda ham o‘z ifodasini topmogda. Davlatlar o‘rtasida ishonch kamayib borayotgan, global iqtisodiy tizimda raqobat kuchaygan bir paytda O‘zbekiston muloqot va hamkorlikka tayangan siyosatni ilgari surmogda. Bu esa mamlakatimizning strategik qarashlari qisqa muddatli manfaatlar emas, balki uzoq istiqbolni ko‘zlayotganini anglatadi.

Vashingtonda bo‘lib o‘tgan muzokaralar, avvalo, iqtisodiy diplomatiyaning ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi. Zamonaviy dunyoda siyosiy munosabatlar barqarorligi ko‘p jihatdan iqtisodiy munosabatlarga bog‘liq. O‘zaro savdo qiymatining 1 milliard dollardan oshgani, AQSHning yuzlab kompaniyalari mamlakatimizda faoliyat yuritayotgani o‘zaro ishonch va manfaatdorlikni anglatadi. Investitsiya platformasini tashkil etish to‘g‘risidagi bitim esa hamkorlikni

va huquqiy kafolatlar mavjud joyda shakllandi. Shu ma’noda, O‘zbekistondagi sud-huquq islohotlari, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash choralari va ochiqlik siyosati tashqi investorlar uchun mustahkam asos yaratmogda. Bu esa tashqi siyosat va ichki islohotlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Davlatning xalqaro nufuzi uning ichki barqarorligi bilan chambarchas bog‘liq.

Tashrif doirasidagi uchrashuvlarda energetika, o‘ta muhim mineralar, qishloq xo‘jaligi, axborot texnologiyalari kabi strategik sohalarida hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Bu sohalar XXI asr iqtisodiyotining drayverlari. Raqamli texnologiyalar, “yashil” energetika va resurslar samaradorligi global taraqqiyotning yangi mezonlarini belgilamogda. O‘zbekiston ana shu jarayonlarda faol ishtirok etish orqali nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta'minlash, balki xalqaro mehnat taqsimotida munosib o‘rin egallashni maqsad qilgan.

Mazkur tashrifning eng muhim jihati iqtisodiy kelishuvlar bilan cheklanib qolmadi. Tinchlik kengashi sammitidagi ishtirok O‘zbekiston tashqi siyosatining qarashini namoyon etdi. Sammit AQSH Prezidenti Donald Tramp raisligida o‘tkazildi va unda qator davlatlar delegatsiyalari qatnashdi. Bu anjuman global xavfsizlik masalalari, jumladan, G‘azo mintaqasini tiklash va mamlakatga barqarorlikni ta'minlash kabi o‘ta dolzarb mavzularni muhokama qilish maydoniga aylandi.

Prezidentimiz o‘z nutqida tinchlikni faqat siyosiy kelishuv yoki vaqtinchalik murosas deb emas, balki inson hayoti va qadriini tiklashga qaratilgan kompleks jarayon sifatida talqin qildi. Mojarolardan keyingi tiklanish faqat binolarni qayta qurish emas, u ishonchni, ijtimoiy adolati va kelajakka umidni tiklash demakdir. Agar adolat ta'minlanmasa, tinchlik mustahkam bo‘lmaydi. Agar aholi o‘z taqdirida ishtirok etmasa, har qanday tashqi boshqaruv samarasiz bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, G‘azo bo‘yicha bildirilgan fikrlar — mahalliy aholining qo‘llab-quvvatloviga tayanish zarurligi, muvofiqlashtirilgan xalqaro sa’y-harakatlar ahamiyati — global siyosatda inson omilini ustuvor deb bilishga asoslanadi.

Yangi G‘azo g‘oyasi ramziy va amaliy mazmunga ega. Ramziy jihati shundaki, u vayronalar o‘rnida farovon hayot barpo etish imkoniyatiga ishora qiladi. Amaliy jihati esa infratuzilmani tiklash, ijtimoiy obyektlar

qurish va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish orqali barqarorlikka erishishni nazarda tutadi. O‘zbekistonning turar joylar, maktablar, bog‘chalar va shifoxonalar qurilishida ishtirok etishga tayyorligi mamlakatimizning tinchlikparvarlik pozitsiyasi amaliy xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

Bu yerda yana bir muhim jihatga e’tibor qaratish lozim: yangi O‘zbekiston o‘z taraqqiyot tajribasini universal model sifatida emas, balki hamkorlik uchun ochiq tajriba sifatida taqdim etmoqda. Mamlakatimizda so‘nggi yillardagi keng ko‘lamli islohotlar — iqtisodiyotni liberalashtirish, davlat boshqaruviini takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish — barqaror taraqqiyotga erishish mumkinligini amalda isbotladi. Ana shu tajriba xalqaro maydonda ham konstruktiv tashabbuslar bilan uyg‘unlashmogda.

Tashrif doirasidagi biznes uchrashuvlari va ikki tomonlama hujjatlar imzolashini ham pragmatizm va strategik tafakkur namunasidir. Yonilg‘i quyish shoxobchalari tarmog‘ini qurish, yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish, mineral resurslarni qazib olish va qayta ishlash, agrosanoat klasterlarini rivojlantirish kabi loyihalar nafaqat iqtisodiy samara, balki yangi ish o‘rinlari va texnologik yangilanishni ta'minlaydi. Bu esa iqtisodiy o‘shishning sifat jihatdan yangi bosqichini anglatadi.

Tashqi siyosat faqat manfaatga asoslanga, sovuqqon hisob-kitobga aylanadi. Agar u faqat ideallarga tayansa, amaliy samara bermasligi mumkin. O‘zbekiston esa ana shu ikki qutb o‘rtasida muvozanat saqlashga intilmogda.

Bugungi global sharoitda o‘rta davlatlarning roli tobora ortib bormogda. Ular katta kuchlar o‘rtasidagi raqobatda faol ishtirok etmay turib ham muloqot va hamkorlik maydonini kengaytirish orqali barqarorlikka hissa qo‘sha oladi. O‘zbekistonning Tinchlik kengashi sammitidagi ishtiroki ana shu tendensiyaning yorqin namunasidir. Mamlakatimiz o‘zini faqat mintaqaviy emas, balki global jarayonlarning mas’ul ishtirokchisi sifatida namoyon etmoqda.

Mazkur tashrif va unda ilgari surilgan g‘oyalari yurtimiz tashqi siyosatining konseptual asoslarini yanada oydinlashtirdi. Uning markazida inson qadri va farovon hayoti turadi. Iqtisodiy taraqqiyot tinchlikni mustahkamlaydi, tinchlik esa barqaror taraqqiyot uchun zamin yaratadi. Bunday o‘zaro bog‘liqlikni anglagan davlatgina uzoq istiqbolli siyosat yuritadi.

O‘zbekistonning xalqaro maydondagi faolligi tasodifiy emas. Bu — izchil islohotlar, ochiq muloqot va strategik fikrlash samarasi. Tinchlikni barpo etish esa shunchaki siyosiy vazifa emas, balki sivilizatsion mas’uliyatdir. Ana shu mas’uliyatni anglagan holda, O‘zbekiston global hamjamiyat bilan birga adolati va barqaror dunyo qurish yo‘lida izchil qadam tashlamogda.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



Ekologiya

SUV VA HAVODEK ZARUR TASHABBUS

Hamza AMINOV,
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari
ilmiy-tadqiqot instituti direktori o'rinbosari



tozalash inshootlari hamda monitoring stansiyalarini o'rnatish maqsadida 100 million dollarlik kredit liniyasi ochilishi e'lon qilindi. Bu tashabbus, shubhasiz, ekologik xavfsizlikni ta'minlash yo'lidagi muhim qadamdir.

Murojaatnomada Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi issiqxona xo'jaliklari faoliyatiga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu hududlarda ko'mir va gazda ishlaydigan qariyb 2000 ta issiqxona mavjudligi ta'kidlandi. Filtsiz, ko'mir yoqiladigan qozonxonalardan bosqichma-bosqich voz kechish rejalashtirilgan. Bunday obyektlar poytaxt tashqarisiga ko'chiriladi, issiqlik ta'minoti esa markazlashgan qozonxonalar orqali tashkil etiladi. Shu maqsadda kamida 200 gektar maydonga ega agroklasterlar tuziladi. Ularning tarkibiga o'tmoqchi bo'lgan issiqxonalar alohida subsidiya ajratiladi.

Hujjatda, shuningdek, ekologik toza transport faoliyatini rivojlantirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, avtotransport vositalari uchun ekologik stikerlar berish tizimi joriy etilishi ma'lum qilindi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, yirik shaharlar, xususan, Toshkentdagi tirbandliklar yurtdoshlarimizning yo'l-transport bilan bog'liq kundalik hayotini qiyinlashtirish bilan birga ekologiyaga ham jiddiy zarar yetkazmoqda. Endi xalqaro tajribadan kelib chiqib, avtomobillar zararli chiqindilar darajasiga ko'ra tasniflanadi va

Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida ekologik muvozanatni ta'minlash, "yashil" energetikani rivojlantirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilishga doir aniq va qat'iy tashabbuslar ilgari surilgan. Xususan, yirik sanoat korxonalarida havoga chiqariladigan zararli moddalarni kamaytirish uchun filtr va zamonaviy

shunga mos ekologik stikerlar beriladi. Atrof-muhitga yuqori zarar yetkazuvchi transport vositalarining poytaxt, viloyat markazlari va shaharlarga kirishi cheklanadi. Bu jarayonda avtomobillar egalari o'g'irlik tushmaydi, ya'ni ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini ko'zda tutilgan. Masalan, eski transport vositasini yangisiga almashtirishda avtokredit foiz stavkasining bir qismi kompensatsiya qilinadi. Shu bilan birga, chiqindilar hajmini kamaytirish uchun filtr o'rnatishga tayyor bo'lgan haydovchilarga xarajating bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratilishi ko'zda tutilmoqda.

Murojaatnomada Toshkent va yirik shaharlarda jamoat transportini rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Avtobus va taksi uchun ajratilgan maxsus yo'laklar tarmog'i kengaytiriladi. Toshkent, Samarqand va Namangan shaharlarida esa intellektual yo'lchiroqlar asosidagi harakatni boshqarish tizimi joriy etiladi.

Elektromobillardan foydalanishni rag'batlantirishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Yaqin yillarda ekologik toza transport vositalari



sonini ko'paytirish borasida besh yillik dastur amalga oshiriladi. Uning doirasida mahalliy elektromobillar uchun avtokredit 12 foiz, import elektromobillar uchun esa 16 foiz stavkada taqdim etiladi. Zaryadlash stansiyalarini o'rnatayotgan tadbirkorlarga 10 foizli

imtiyozli kreditlar beriladi. Shuningdek, yer uchastkalarini auktsionlarda bozor narxidan ikki baravar arzon sotib olish imkoniyati yaratiladi. Elektromobillarni quvvatlashda 1 kilovatt-soat uchun 300 so'mdan oshgan elektr energiyasi xarajating bir qismi davlat byudjeti hisobidan

qoplanadi. Elektromobillarda taksi xizmatini ko'rsatayotgan fuqarolar uchun ham qo'shimcha imtiyozlar belgilangan.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yashil hududlarni kengaytirish borasida tizimli chora-tadbirlar ko'rilmog'da. Bu boradagi ishlar davomi sifatida Murojaatnomada aniq vazifalar belgilab berildi. Xususan, chang-to'zonlarning oldini olish maqsadida Surxondaryo viloyatidagi 10 ming gektar maydonda "yashil makon" hududi barpo etiladi. Sirdaryo viloyatida esa 84 kilometr uzunlikdagi "yashil" devor tiklanadi. Qoraqalpog'iston, Xorazm, Buxoro va Navoiydagi jami 250 ming gektar maydonda, jumladan, Orolning qurigan tubidagi 115 ming gektarda daraxt va butalar ekiladi. Har bir hududda botanika va dendrologiya bog'lari, shuningdek, soya-salg'in kamida 20 ta sayr yo'lagi yo'tqizilishi rejalashtirilgan.

Murojaatnomada ekologiya sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlash va ekologik ta'limni rivojlantirish masalasiga ham ustuvor yo'nalish sifatida e'tibor qaratildi. Prezidentimiz yaqin besh yilda korxonalarida ekostandartlarni joriy etish kamida 30 ming ekologik menejer tayyorlashni talab etishini ta'kidladi. Shu munosabat bilan 2026-yilda har bir hududda

"yashil" texnikumlar tashkil etilib, dual ta'lim asosida yiliga 10 mingga mutaxassis tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo Yashil universiteti (Green University) faoliyati kengaytiriladi. Havo, suv va tuproq sifatini baholashga mo'ljallangan kompleks laboratoriyalar ochiladi. Shaharlarda ilmiy shamollatishni kuchaytirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkaziladi.

Umuman, 2026-yilda ekologiya sohasini rivojlantirish uchun 1 trillion 900 milliard so'm yo'naltirilishi rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbari suv resurslarini boshqarishga doir kompleks chora-tadbirlar bo'yicha ham aniq vazifalarni belgilab berdi. Xususan, joriy yilda suvni tejovchi texnologiyalarni qo'llash uchun 3 trillion 300 milliard so'm ajratiladi. 1300 kilometr magistral kanallar betonlashtiriladi. Bu esa har yili 500 million kub metr suvni tejash imkonini beradi. Shuningdek, ochiq drenaj va kollektor tizimlarini yopiq tizimga o'tkazish bo'yicha alohida dastur qabul qilinadi.

Poytaxtimiz, viloyat markazlari va shaharlarda "yashil" hududlarni kengaytirish uchun sug'orish va drenaj tizimlarini qayta tiklash zarurligi ta'kidlandi. Buning uchun 160 million dollarlik katta dastur doirasida Toshkent shahrida 150 kilometr yopiq drenaj tizimi barpo etiladi, 197 kilometr kanal va kollektorlar ta'mirlanadi hamda 63 kilometr yangi kanallar barpo etiladi. Bu chora-tadbirlar shaharda yanada salqin va qulay mikroiklim shakllanishiga xizmat qiladi.

Murojaatnomada mahalla instituti jamiyatning eng muhim bo'g'ini sifatida qayta baholandi. U an'anaviy ijtimoiy institut emas, balki aholi bandligini ta'minlash, ijtimoiy muammolarni joyida hal etish va fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytiruvchi mexanizm sifatida talqin qilindi. Mahalla orqali davlat xizmatlarini aholi manfaatlariga moslashtirish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish g'oyalari amalga oshirilyapti.

O'zbekiston mahallalari uyushmasi va hududiy bo'limlari bilan yaqin hamkorlik tufayli bugun yurtimizning barcha hududida obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va fuqarolar hayoti sifatini oshirishga qaratilgan muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda.

Tajribali oqsog'qollar, faol yoshlar ko'chat ekish va parvarishlashda ishtirok etib, "Yashil makon" umummilliy loyihasi rivojiga hissa qo'shmoqda. "Mening bog'im", "Obod mahalla" loyihasi doirasidagi ishlar tufayli hovli va ko'chalarni obodonlashtirish, hududlarni tozalash, atrof-muhitni yaxshilash, aholi uchun qulay sharoit yaratish borasidagi sa'y-harakatlar yangi bosqichga ko'tarildi.

Qisqasi, Murojaatnomada ilgari surilgan tashabbuslar O'zbekistonning ekologik xavfsiz, sog'lom va "yashil" kelajagini barpo etishga munosib xizmat qiladi.

Kuz faslining oxiri — qishning sovuq nafasi sezila boshlagan palladan to'pishqichilik mavsumiga qadar aholini sarxil, vitamanga boy meva-sabzavot bilan uzluksiz ta'minlash masalasi har yili dolzarb tus oladi. Ayniqsa, yilning sovuq kunlarida organizm uchun zarur tabiiy darmondori va mikroelementlarga ehtiyoj oshib, bozorlarda sifatli mahsulotlarga talab ortadi. Ana shunday sharoitda issiqxonalar aholining oziq-ovqatga ehtiyojini qondirishda ishonchli va samarali manba sifatida muhim o'rin egallamoqda.

Bugun issiqxona xo'jaliklari nafaqat mavsumiy tanqislikning oldini olish, balki aholini yil bo'yi sabzavot va ko'katlar bilan ta'minlashda ham hal qiluvchi omilga aylandi. Pomidor, bodring, qalampir, ko'katlar va boshqa sarxil mahsulotlarning qish faslida ham bozorlarda mo'l-ko'l bo'lishi, narxlar keskin oshib ketmasligi aynan issiqxonalar faoliyati bilan bog'liq.

Shu bilan birga, issiqxonachilik tarmog'ining rivojlanishi ichki bozor barqarorligini ta'minlash, importga qaramlikni kamaytirish va mahalliy mahsulot ulushini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bir qatorda aholi salomatligini asrash, turli kasalliklarning oldini olishda ham juda muhim.

Qolaversa, issiqxonalar qishloq joylarda yangi ish o'rinarlini ochish, aholi bandligini ta'minlash, fermer hamda tadbirkorlar daromadini oshirishga hissa qo'shmoqda. Zamonaviy texnologiyalar asosida faoliyat yuritayotgan issiqxonalar suv va energiya resurslaridan oqilona foydalanish orqali ekologik barqarorlikni ham xizmat qilyapti.

Ayni yo'nalishda Jizzax viloyatida muayyan ishlar qilinmoqda. Qishloq xo'jaligining an'anaviy tarmoqlari — g'allachilik, paxtachilik, chorvachilik bilan bir qatorda meva-sabzavot yetishtirish, xususan, issiqxona xo'jaligini rivojlantirish alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yaqin yillargacha meva-sabzavotning katta qismi Samarqand va vodiylaridan keliriladigan Jizzax bozorlari bugun hududning o'zida yetishtirilgan mahsulotlar bilan to'la. Eng muhimi, boshqa joylarga qaraganda arzon, sifati yuqori. Bu mo'l-ko'lichilikda viloyatning barcha tumanida issiqxona xo'jaliklari ko'payib barayotgani ham muhim omil bo'lmoqda. Ayniqsa, sovuq kunlari ochiq maydonga nisbatan issiqxonada mahsulot yetishtirish dehqonchilikning rivojlanishiga xizmat qiladi. Issiqxonada bir gektar yerda kamida 50 tonna



Islohot odimlari

TO'RT FASLDA HAM BOZORLARIMIZ TO'KIN

sabzavot yetishtirish mumkin. Masalan, har gektar ochiq maydondan o'rta 35 tonnagacha pomidor hosili olinsa, issiqxonada bu ko'rsatkichni 120 tonnagacha oshirish imkonini bor. Yana bir afzalligi shundaki, issiqxonada yetishtirilgan mahsulot sifati ochiq maydondagiga qaraganda yuqori va eksportbo bo'ladi.

Bugun issiqxona nafaqat qishloq tadbirkorining daromad manbai, balki butun jamiyatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlovchi strategik sohadir, — deydi Agrosanoim rivojlantirish agentligi Jizzax viloyati bo'limi bosh mutaxassisi Aziz No'monov. — Viloyatimizda ushbu tarmoq izchil rivojlanib, katta maydonlarda zamonaviy issiqxonalar barpo etilmoqda. Hozir 110,5 gektar yerda 56 ta tadbirkorlik subyekti issiqxona xo'jaliklarini tashkil etgan. Ularning 44,5 gektarida gidroponika usulida, 31,9 gektarida esa an'anaviy texnologiya asosidagi issiqxonalar samarali faoliyat yuritib kelmog'da.

E'tiborlisi, jarayon shu bilan cheklanib qolmayapti. Yana 4 ta yangi loyiha doirasida 11,1 gektar maydonda zamonaviy issiqxonalar barpo etish rejalashtirilgan. Bu esa mahsulot yetishtirish hajmini oshirish, yangi ish o'rinarlini ochish va bozorlarimizda taqchilikning oldini olishga xizmat qiladi.

O'tgan yili viloyatdagi issiqxonalarda 3416,8 tonna mahsulot yetishtirilgan. 2025-2026-yillarning kuz-qish mavsumida esa bo'rsatkich 5925,8 tonnaga yetishi

kutilmoqda. Bu nafaqat miqdor, balki sifat ko'rsatkichi ham oshib borayotganidan dalolat. Issiqxonalarida meva-sabzavot yetishtirish hajmi ortishi ichki bozorlarning yil davomida zarur mahsulot bilan ta'minlanishi barobarida eksport salohiyati ham mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Jizzax viloyatidagi issiqxonalarining qariyb yarmi Sharof Rashidov tumani hissasiga to'g'ri keladi. Shu bois, hudud tashkiloti xo'jaligining drayver tarmoqlaridan biriga aylanib ulgurdi. Tumandagi 42 gektardan ziyod maydonda zamonaviy issiqxonalar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ular yil davomida bozorlarni sarxil mahsulot bilan ta'minlashda muhim o'rin tutayotir. Ayniqsa, Qahramon mahallasi bu borada butun viloyat miqyosida namuna sifatida e'tirof etiladi.

Mahalladagi yosh tadbirkorlardan biri Sardor Bobobekov boshchilik qilayotgan issiqxona xo'jaligi bundan sakkiz yil muqaddam faoliyat boshlagan. 2018-yili dastlab 2 gektar yerda gidroponika usulidagi issiqxona ishga tushirilgan bo'lsa, 2020-yilga kelib yana qo'shimcha 1 gektarda Janubiy Koreya texnologiyalari asosida navbatdagi issiqxona faoliyat boshladi. Davlatimiz rahbarining sohani qo'llab-quvvatlashga qaratgan e'tibori samarasi o'laroq, bugun mazkur xo'jalikka qarashi issiqxonalar qariyb 3,5 gektar maydonni egallab, ularda pomidor va qulupnay ko'chatlari parvarish qilinmoqda.

Sharof Rashidov tumanidagi issiqxonachilik sohasida salmoqli tajribaga ega yana bir yirik



xo'jalik Akmal Ahmedov rahbarligida faoliyat yuritmoqda. 4 gektar maydonda joylashgan ushbu issiqxonada talab yuqori bo'lgan yangi navdagi pomidor ko'chatlari ekilgan, tomchilab sug'orish texnologiyasi joriy etilgan.

Raqamlar ham soha taraqqiyotini yaqqol namoyon etadi. 2018-yili mazkur issiqxonaning gektaridan 65-70 tonnadan hosil olingan bo'lsa, bugun ko'rsatkich 95-100 tonnaga yetdi. Eng muhimi, mahsulotlar faqat mavsumiy emas, balki yil davomida ichki va tashqi bozorlarga

uzluksiz yetkazib berilyapti. Ayniqsa, qish kunlarida ta'minot zanjiri barqarorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ana shunday sharoitda harorat, yorug'lik va namlikni sun'iy boshqarish imkonini beradigan issiqxonalar oziq-ovqat yetishtirishdagi asosiy tayanch yo'nalishga aylangan.

Ushbu tumaning Pastki Suloqli mahallasidagilar Kamoliddin va Otajon Hazratqulovlarni mirishkor dehqon sifatida yaxshi biladi. Boisi, besh yildan buyon zamonaviy usuldagi issiqxona dehqonchiligi bilan shug'ullanib kelayotgan aka-ukaning faoliyati ko'pchilik uchun tajriba maktabi bo'lib xizmat qilayotir.

Shu kunlarda ularning zamonaviy usulda barpo etilgan issiqxonasida bahor tarovati va yozning pishqichiligi hukm surmoqda. Umumiy maydoni olti gektarni tashkil etuvchi issiqxonaning besh gektarida gidroponika usulida, bir gektarida esa an'anaviy tarzda ekilgan pomidorlar pishib yetilmoqda.

— Tijorat bankidan 1 million 100 ming dollar kredit olib, Janubiy Koreya texnologiyasi asosida issiqxona qurdirik, — deydi Kamoliddin Hazratqulov. — Undagi barcha jarayon — harorat, yorug'lik, suv me'yorlari avtomatik usulda boshqariladi. Biroq katta xarajat hisobiga barpo etilgan issiqxonada mahalliy navli pomidor ko'chatlaridan olingan hosil bilan ko'zlangan samaradorlikka erishib bo'lmaydi. Shuning uchun bir gektar maydonda

barqaror daromadimiz evaziga bank oldidagi majburiyatlarimizni to'liq bajarib, kreditni muddatidan oldin yopishga muvaffaq bo'ldik.

Ayni pishqichilik mavsumida aka-uka dehqonlar issiqxonalarida har gektaridan 100 tonnagacha hosil yig'ishtirib olinib, ichki bozorga va eksportga chiqarmoqda. 2025-2026-yilgi mavsumda jamiyat a'zolari Rossiya, Qozog'iston, Birlashgan Arab Amirliklariga 1 million dollarlik mahsulotni eksport qilish rejalashtirgan. Shu kungacha salkam 400 ming dollar qiymatidagi pomidor buyurtmachilarga yetkazib berildi.

Shu bilan birga, tuman mahallalarida kichik hajmdagi issiqxonalar soni ham izchil ortib boryapti. Bu jarayon sog'lom raqobat muhitini shakllantirib, aholi daromadini oshirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, Qang'li mahallasida ana shu tarmoq orqali turmush sharoitini yaxshilayotgan oilalar soni yil sayin ko'paymoqda. "Mahalla yetitilgi" ko'magida xonadonlarda yangi-yangi issiqxonalar barpo etilmoqda.

Bunday tadbirkorlik ruhini Tuyuqli mahallasida ham yaqqol ko'rish mumkin. Hududdagi 700 ga yaqin xonadonning 314 tasida issiqxonalar tashkil etilgan. Mazkur mahalla aholisi o'z tomorqasidagi issiqxonalar orqali oilaviy daromadini oshirish barobarida bozorlar to'kinligiga, aholini yil davomida sifati oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlashga ham munosib hissa qo'shayotir.

E'tiborga molik jihat shundaki, Sharof Rashidov tumanida yetishtirilayotgan issiqxona mahsulotlarining eksport hajmi ham yildan yilga oshib boryapti. Xususan, 2018-yilda 2 million dollar qiymatidagi mahsulot xorijga yo'naltirilgan bo'lsa, 2024-yili bu ko'rsatkich 8 million dollarga yetdi. 2025-yilda esa eksport hajmi qariyb 20 million dollarga yetkazilgani sohadagi ulkan salohiyatdan dalolat beradi.

— 2025-2026-yilgi kuz-qish mavsumida issiqxona xo'jaliklarida tabiiy gazdan foydalanishga ruxsat berilgani tarmoqni yanada rivojlantirishga juda katta g'amxo'rlik bo'ldi, — deydi Aziz No'monov. — Barcha tuman va qishloqlarda "mahalla yetitilgi" ko'magida issiqxona bilan shug'ullanuvchi tadbirkor va tomorqachilar soni yil sayin ko'payib boryotir. Bu tarmoqni rivojlantirish bozorlarimiz to'kinligi, aholi turmush darajasini oshirish va kambag'allikdan qichirishda g'oyat muhim.

Ha, bugun issiqxonalar nafaqat qishloq xo'jaligining bir tarmog'i, balki aholi hayotida muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi sohaga aylanmoqda. Ular tufayli bozorlarimiz yil davomida yangi, sifati, vitamanga boy mahsulotlar bilan to'lib bormoqda. Zamonaviy issiqxonalar ko'llanayotgan ilg'or texnologiyalar esa hosildorlikni oshirib, yer va suv resurslarini asrashga xizmat qiladi.

Farhod NE'MATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bugungi kunda har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim berish muhim vazifaga aylanmoqda. Shu sababli o‘quv rejalariga “Inklyuziv ta’lim metodikasi”, “Alohida ehtiyojli bolalar psixologiyasi”, “Differensial ta’lim texnologiyalari” kabi fanlar kiritildi.

Keyingi yillarda inson kapitaliga sarmoya kiritish, ta’limni isloh qilishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Ana shu ezgu ishlarning mantiqiy davomi sifatida joriy yilning 5-fevral kuni davlatimiz rahbarining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni imzolandi. Unda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish borasida ko’plab vazifalar qo’yildi.

Jumladan, 2026/2027-o’quv yilidan boshlab pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida maktabgacha va boshlang’ich ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarni tayyorlash xalqaro ilg’or tajribalarga mos ravishda takomillashtirilgan ta’lim dasturlari asosida amalga oshirilishi belgilab berildi.

Me’yoriy hujjatda ko’zda tutilgan maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimining istiqboldagi rivojlanish yo’nalishlari, bu boradagi ustuvor vazifalar xususida soha mutaxassislarining fikri bilan qiziqdik.



Yuksalish pallasi



Haqberdi HAMZAYEV,
Jizzax davlat pedagogika
universitetining o’quv ishlari
bo’yicha prorektori:



— Jizzax davlat pedagogika universitetida maktabgacha va boshlang’ich ta’lim yo’nalishlari bo’yicha bakalavrlar tayyorlash jarayoni xalqaro ilg’or tajribalar asosida takomillashtirilgan ta’lim dasturlari orqali izchil yo’lga qo’yilgan.

So’nggi yillarda universitetimizda o’quv rejalar va fan dasturlari to’liq qayta tahlil qilindi. Xususan, Yevropa oliy ta’lim makonida qo’llanilayotgan ECTS kredit-modul tizimi talablari asosida o’quv yuklamlari optimallashtirildi, fanlar mazmuni kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta shakllantirildi.

Ta’lim dasturlarini takomillashtirishda bir necha yo’nalishga alohida e’tibor qaratildi. Bola rivojlanishining psixologiyasi va pedagogikasi bo’yicha amaliy ko’nikmalar, xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS) mezonlari asosida metodik tayyorgarlikni kuchaytirish, inklyuziv ta’lim asoslarini alohida modul sifatida kiritish, raqamli pedagogika va STEAM elementlarini integratsiya qilish masalalari qamrab olindi.

Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim yo’nalishida eng muhim jihat nazariya va amaliyot uyg’unligidir. Shu maqsadda universitetimiz tajriba-sinov maydonlarida “universitet — bog’cha — maktab” integratsiyalangan hamkorlik modeli joriy etildi. Talabalar 1-kursdan boshlab maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kuzatuv amaliyotini, 2-3-kurslarda metodik va diagnostik amaliyotini, 4-kursda esa mustaqil pedagogik amaliyotni o’taydi.

Bunda talabalar faqat dars o’tish bilan cheklanib qolmaydi. Bolalar rivojlanishini monitoring qilish, individual ta’lim trayektoriyasini ishlab chiqish, ota-onalar bilan hamkorlik kabi zamonaviy pedagogik kompetensiyalarni egallaydi.

Bugungi kunda har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim berish muhim vazifaga aylanmoqda. Shu sababli o’quv rejalariga “Inklyuziv ta’lim metodikasi”, “Alohida ehtiyojli bolalar psixologiyasi”, “Differensial ta’lim texnologiyalari” kabi fanlar kiritildi.

Ushbu fanlar doirasida talabalar logopedik asoslar, korreksion pedagogika elementlari, maxsus ta’lim muhitini tashkil etish, inklyuziv sinfda darsni rejalashtirish bo’yicha amaliy ko’nikmalarni o’zlashtiradi.

Ta’lim sifati oshirishda raqamli texnologiyalarning o’rni beqiyos. Shu maqsadda universitetimizda elektron ta’lim

platformalari, LMS tizimi orqali masofaviy ta’lim elementlari, interaktiv simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar, multimedia resurslari faol joriy etilmoqda.

Ayni yo’nalishda talabalar uchun raqamli didaktik materiallar yaratish, interaktiv o’yinlar orqali bolalarda kognitiv faollikni rivojlantirish bo’yicha alohida modullar ishlab chiqildi.

Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim sohasidagi dolzarb muammolarni hal etish maqsadida professor-o’qituvchilar va talabalar tomonidan qator ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 5-7 yoshli bolalarda funksional savodxonlikni rivojlantirish, boshlang’ich sinflar uchun integrativ ta’lim modellari ishlab chiqish, milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga ham e’tibor qaratilyapti.

Talabalar uchun qisqa muddatli akademik mobillik dasturlari yo’lga qo’yilgan bo’lib, bu ularning xalqaro pedagogik tajriba bilan tanishish imkoniyatini kengaytiraypti. Natijada bitiruvchilarning ishg joylashish ko’rsatkichi oshdi. Talabalarining kasbiy tayyorgarlik darajasi sezilarli ravishda yaxshilandi.

Kelgusida dual ta’lim elementlarini kengaytirish, xalqaro akkreditatsiyadan o’tish, STEAM laboratoriyalarini maktabgacha va boshlang’ich ta’limga moslashtirish, ta’lim dasturlarini raqamli kontent bilan boyitish kabi ustuvor vazifalar belgilab olingan.

Prezidentimiz farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishi bilan ahamiyatli.

Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash bu — faqatgina mutaxassis emas, balki mamlakatning kelajak avlodini shakllantiruvchi pedagoglarni tarbiyalash masalasi. Shu bois, universitetimizdagi ushbu yo’nalishdagi islohotlar yangi O‘zbekistonning ta’lim sohasidagi strategik maqsadlariga hamohang ravishda izchil davom ettiriladi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA tayyorladi.

Feruza MADRAHIMOVA,
Urganch davlat pedagogika
instituti rektori, pedagogika
fanlari doktori, professor:



— Inson shaxsi shakllanishi, dunyoqarashi va intellektual salohiyatining poydevori aynan maktabgacha va boshlang’ich ta’lim bosqichida qo’yiladi. Shu bois, 2026-2027-o’quv yilidan pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida maktabgacha va boshlang’ich ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarni tayyorlash tizimining xalqaro ilg’or tajriba asosida transformatsiya qilinishi shunchaki navbatdagi islohot emas, balki millat genofondini asrash va rivojlantirishga qaratilgan strategik qadamdir.

Urganch davlat pedagogika instituti ham pedagogik kadrlar tayyorlovchi tashkilot sifatida ushbu o’zgarishlar markazida turgan. Oldimizda turgan vazifa nafaqat diplomli mutaxassis tayyorlash, balki bolaning qabini tushunadigan, zamonaviy texnologiyalarni o’zlashtirgan va global fikrlaydigan yangi avlod o’qituvchisini tarbiyalashdir.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish eng ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Davlatimiz rahbari farmoni mamlakatimiz ta’lim tizimi tarixida yangi sahifani ochdi. Mazkur hujjat nafaqat tashkiliy o’zgarishlarni, balki ta’lim mazmunidagi konseptual yangilanishlarni ham ko’zda tutadi.

Farmonda ta’kidlanganidek, maktabgacha ta’lim tizimini ilg’or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish va innovatsion maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog’ini tashkil etish bugungi kunning kechiktirib bo’lmaz zarurati. Urganch davlat pedagogika instituti bu islohotlarning faol ijrochisi sifatida 2026/2027-o’quv yilidan boshlab kadrlar tayyorlash jarayonini mutlaqo yangi model asosida tashkil etmoqda.

Pedagogik ta’lim sifati oshirishning eng samarali yo’llaridan biri nazariy bilimlarni bevosita amaliyot maydonida mustahkamlashdir. Prezidentimiz farmoni va unga muvofiq ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturiga ko’ra, 2026/2027-o’quv yilidan boshlab pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida o’rta maxsus ma’lumotli pedagog kadrlar uchun dual ta’lim shakli joriy etilmoqda. Yangi tizimga ko’ra, maktabgacha ta’lim yo’nalishida ta’lov-shartnoma asosida bakalavrlar tayyorlanadi. Talabalar o’qish davomida ish stajiga ega bo’ladi va ijtimoii himoyalanaadi. O’quv jarayoni “Yangi avlod” maktabgacha ta’lim tashkilotlari bazasida tashkil etiladi.

Dual ta’lim shaklida bo’lajak tarbiyachilar bir kun pedagogika oliy ta’lim tashkilotida, besh kun maktabgacha ta’lim tashkilotida nazariy va amaliy ko’nikmalarini oshirib boradi. Talabalar darslarda o’rganigan metodika, didaktika yoki o’yinga asoslangan ta’lim elementlarini guruhda qo’llab ko’radi. Bu bilimlarni mustahkamlash bilan birga nazariya va amaliyot uyg’unligini ta’minlaydi. Mazkur jarayon talabalarining bilim va tajribasini oshiradi, mehnat bozoriga tayyor kadrlarni yetkazib beradi.

Dual ta’lim shaklida tahsil olayotgan talaba o’zini haqiqiy pedagog sifatida his qiladi, bu esa unda kasbga sadoqat va mas’uliyatni kuchaytiradi.

Farmonda “Yangi avlod” maktabgacha ta’lim tashkilotlari huzurida Bolalarni rivojlantirish innovation markazlarini tashkil etish belgilangan. Bu vazifa sohaviy oliyogohlar va ilmiy-tadqiqot institutlari oldiga dolzarb muammolar yechimiga qaratilgan fundamental tadqiqotlarni o’tkazish talabini qo’yadi. Aynan Urganch davlat pedagogika instituti olimlari tomonidan raqamli didaktika va sun’iy intellekt, o’yinga asoslangan ta’lim (Play-based learning), neyropedagogika yo’nalishlarida olib borilayotgan tadqiqotlar milliy ta’lim kontentini yaratishga va ta’lim strategiyasidagi maktabgacha ta’lim metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

2026/2027-o’quv yilidan boshlab joriy etiladigan ta’lim dasturlari PISA (Programme for International Student Assessment) va PIRLS (Progress in International Reading

Literacy Study) kabi xalqaro baholash dasturlari talabalariga moslashtirilgan. Ta’lim dasturlarini transformatsiya qilishda 4K (tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va kollaboratsiya) ko’nikmalarini takomillashtirish, STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani integratsiyalashtirish) holda o’qitish) yondashuvi asosida o’qitishga alohida ustuvorlik berilmoqda.

Shuningdek, farmonga muvofiq, pedagogik oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining maqomi yanada mustahkamlandi. Xususan, 2027/2028-o’quv yilidan boshlab maktabga tayyorlov guruhlarida ta’lim jarayonlari oliy ma’lumotli pedagoglar hamda bitiruvchi bosqich talabalari tomonidan olib borilishi belgilandi. Bu esa bitiruvchilarimizga o’qishni tamomlamadan turib professional faoliyatga kirishish imkonini beradi.

Bir so’z bilan aytganda, farmon ta’lim tizimini modernizatsiyalashtirish huquqi va konseptual asosi bo’lib xizmat qiladi.



Boshlanishi 1-betda

Bir qarashda mahallada bir-biridan keskin farqlanuvchi ikki manzarani ko’rish mumkin. Bir tomonda iqtidorli, tashabbuskor, xorijda o’qiyotgan, startap ochayotgan, ilm-fan, sport va san’atda muvaffaqiyat qozonayotgan yoshlar. Ikkinchi tomonda esa vaqtini mazmunsiz o’tkazayotgan, internet va ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog’lanib qolayotgan, migratsiya yoki oilaviy muammolar oqibatida ijtimoiy beqarorlikni boshdan kechirayotgan o’smirlar.

Yoshlar muammolari mahalla kesimida ko’p hollarda quyidagilarda namoyan bo’ladi:

- bandlik va daromad manbalari yetishmasligi;
- ta’lim va kasb tanlashdagi noaniqlik, “kim bo’lishni bilmaslik” holati;
- bo’sh vaqtning mazmunli tashkil etilmagan, sport va madaniyat makonlari yetarli emasligi;
- axborot xurujlari va radikal g’oyalarga nisbatan himoyasizlik;
- oilaviy nizolar, ajrashishlar, migratsiya oqibatida nazoratsiz qolayotgan farzandlar.

Demak, “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deganda faqat yo’l qurish, daraxt ekish yoki bino ta’mirini tushunish noto’g’ri. Bu, avvalo, mahalla orqali yoshlar taqdiriga bevosita ta’sir ko’rsatish yili bo’lishi kerak.

Prezidentimiz Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida mahallani nafaqat o’zini o’zi boshqarish tizimi, balki xalqni birlashtiradigan, yoshlarni tarbiyalaydigan, jamiyatda birdamlikni mustahkamlovchi noyob maskan sifatida ta’rifladi. Millati va tilidan qat’i nazar, butun xalqimizni jipslashtiradigan g’oya “Vatan va xalq manfaat”i deb e’tirof etilar ekan, ushbu maqsad sari borishda mahalla hal qiluvchi bo’g’in sifatida ko’rilmoqda. Yil munosabati bilan qabul qilingan davlat dasturida mahalla infratuzilmasini yaxshilash bilan birga yoshlar bandligi, ruhiy salomatligi, ma’naviy olami va

MAHALLA VA YOSHLAR JAMIYATNING IKKI TAYANCH USTUNI

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O’QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Kun mavzusi

raqamli madaniyatini mustahkamlash bo’yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan yoshlar siyosati islohotlarning eng ustuvor yo’nalishi ekanini yana bir karra isbotlaydi.

O’zbekistonning demografik tarkibi yoshlar ulushi yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Ya’ni mamlakatimizning qariyb 60 foizi yoshlardan iborat. Shu bois, so’nggi yillarda xalqda alohida

e’tibor qaratilib, yoshlar siyosati yo’nalishida mustahkam huquqi va institutsional baza yaratildi. Xususan, 2017-2025-yillarda 14 ta qonun, Prezidentimizning 30 dan ortiq farmoni va 60 dan ziyod qarori, shuningdek, hukumatning 100 ga yaqin qarori qabul qilinib, yoshlar uchun 200 dan ortiq imtiyozdan foydalanish imkoniyati yaratildi.

Ushbu institutsional islohotlar va chora-tadbirlar o’z samarasini bermogda.

Birinchidan, yoshlarni qamrab oluvchi, dunyoda andozasi yo’q yaxlit tizim yaratildi. Mahalla darajasigacha yoshlar muammolarini aniqlash va ularni hal qilishga qaratilgan “mahalla yettligi” hamda undagi yoshlar yetakchisi faoliyati yo’lga qo’yildi. Ushbu



Charos MIRXOLIQOVA,
Yoshlar muammolarini o’rganish va
istiqbolli kadrlarni
tayyorlash instituti dotsenti

tizim orqali yoshlarni ko’llab-quvvatlash uchun qariyb 2 trillion so’m ajratilib, 1 million 500 ming yoshning hayotda o’z o’mini topishiga ko’maklashildi.

Ikkinchidan, 600 ming yoshning tadbirkorlik loyihasi uchun 13,5 trillion so’m imtiyozli kredit yo’natildi. Natijada so’nggi sakkiz yilda yosh tadbirkorlar soni 3 baravar oshib, tadbirkorlik subyektlarining qariyb 40 foizini yoshlar tashkil etmoqda. Mazkur chora-tadbirlar davom ettirilib, o’tgan yilning o’zida yoshlar tadbirkorligini qo’llab-quvvatlash uchun qo’shimcha 400 million dollar ajratildi.

Uchinchidan, yoshlar bandligini ta’minlashga qaratilgan tizimli ishlarni natijasida, aholi soni 2016-yildagiga nisbatan 17 foiz oshgan bo’lsa-da, band bo’lmagan yoshlar soni 2 baravar kamaydi.

To’rtinchidan, yoshlarning oliy ta’limga qamrov darajasi 2017-yildagi 9 foizdan 42

foizga yetdi, oliy ta’lim muassasalari soni 77 tadan 212 taga ko’paydi. Shuningdek, “Yoshlar daftari”ga kirgan ehtiyojmand oila farzandlari bo’lgan 110 ming talabanning 332 milliard so’m kontrakt to’lovlarini davlat tomonidan to’lab berildi. Xotin-qizlarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida magistratura bosqichidagi ta’lim kontraktlari to’lovlarini davlat tomonidan qoplab berilishi natijasida ushbu bosqichda tahsil olayotgan xotin-qizlar soni 11 baravar oshdi.

Beshinchidan, o’tgan 2016-yilgacha davlat hisobidan 800 nafar iqtidorli yosh xorijda nufuzli oliyogohlarda o’qib kelgan bo’lsa, so’nggi yetti yilda “El-yurt umidi” jamg’armasi orqali 3 baravar ko’p (2300) yosh xorijda ta’lim olish imkoniyatiga ega bo’ldi. Mazkur natijalar “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” doirasida mahallani yoshlar siyosatining eng quyi, eng tezkor va eng manzilli bo’g’inini sifatida kuchaytirish uchun puxta asos bo’lib xizmat qiladi.

Jamiyatni daromadi o’rtadan yuqori davlatlar qatoriga chiqish haqida gap ketganda, ko’pincha yirik loyihalar, katta investitsiyalar tilga olinadi. Aslida esa bu maqsadlarning poydevori mahalla va yoshlar bo’g’inida yotadi. Mahalla tinch bo’lsa, yoshlar o’zini xavfsiz va qadrlangan his qiladi.

Mahallamizdagi yoshlarning ismlari, orzulari va muammolarini bilamizmi? Ularni faqat tanbeh yoki nazorat bilan emas, ishonch va imkoniyat orqali qo’llab-quvvatlayapmizmi? Agar har bir mahallada kamida bir necha yangi yosh tadbirkor paydo bo’lsa, “yo’lini topolmayotgan” farzandlar uchun aniq yo’l xaritalari ishlab chiqilsa, ular uchun ochiq va jonli madaniy-ma’rifiy makonlar yaratilsa, haqiqatan, 2026-yil mahalla va yoshlar orqali jamiyatni yuksaltirish yili sifatida muhrlanadi.

Bugungi loyihalar, sa’y-harakatlar, amaliy ishlar ayni shu ezuq maqsadlarga yo’naltirilgan va yuqori bosqichga chiqayotgani bilan yanada ahamiyatli hamda dolzarbdir.



Boshlanishi 1-betda

Shu bois, “Yangi O‘zbekiston” gazetasida tashkil etilayotgan yangi loyiha — “Uy-muzeylarda” ruknini xalqimizning tarixiy xotirasini tiklash yo‘lidagi ezgu tashabbus deb baholash mumkin. Maqsadimiz bu tabarruk maskanlarning jamiyat hayotidagi, yosh avlod tarbiyasi borasidagi o‘rmini ko‘rsatish, ularni chinakam ziyorat va ma‘rifat markazlariga aylantirishga hissa qo‘shishdir. Zero, o‘z tarixini, buyuk ajdodlarini ulug‘lagan millatning poydevori mustahkam, kelajagi nurli bo‘ladi.

Ushbu loyihaning ilk sonini o‘zbek musiqa madaniyatining ulkan namoyandasi, akademik Yunus Rajabiy uy-muzeyi faoliyati bilan boshlashimizda ham o‘ziga xos ramziy ma‘no bor. Zero, u zot nafaqat o‘zbek musiqa san’atining yirik vakili, balki milliy o‘zlikni ohang orqali saqlab qolgan ulug‘ siymolardandir. Uning hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishish esa o‘quvchiga unutilmas ma‘naviy ozuqa berishi shubhasiz.

Tahririyat



MUSIQA ILMINING XAZINABONI

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Toshkent tom ma‘noda san‘at maskani. Bu yerdan yetishib chiqqan To‘ychi hofiz, Zokirovlar, Shojaliolovlar, Rajabiyar sulolalari, O‘zbekiston xalq hofizlari Muhammadjon Karimov, Faxriddin Umarov, Ochilxon Otaxonov, O‘zbekiston xalq artisti Turg‘un Alimatov, Mahmudjon Fafurov, teatr arboblari Shukur Burhonov, Zikri Muhammadjonov, Fani A‘zamov va boshqalar xalqimiz orasida iftixor bilan tilga olinadi.

Bu ko‘hna kent doimo shunday — kimnidir bag‘riga olsa, kimnidir o‘zining suronli ko‘chalari orasida tentirashga mahkum etgan. Toshkent ijod ahlining qalbida shahar sifatida emas, kutish, izlanish, sabr va umid manzili bo‘lib muhrlanib qolgani ham shundan. Ana shu holatning eng rost guvohlari esa uy-muzeylardir. Boisi, chin ijodkorni olomon to‘la maydonlar, baland binolar, sershovqin chorrahalar yaratmaydi, uni, qanchalik g‘ayrioddiy tuyulmasin, torgina xona, stol-stul, darpardadan o‘tayotgan xira yorug‘lik shakllantiradi. Uy-muzeylar, bir so‘z bilan aytganda, poytaxtning ijod-la nafas olgan lahzasi yashirib qo‘yilgan bahaybat xotira sandiqlari.

Shunday tabarruk dargohlardan biri, shubhasiz, Yunus Rajabiy uy-muzeyidir. Ushbu muzeyga sayohat musiqa ilmining dahosi Yunus Rajabiy hayoti, milliy musiqa san‘atimiz tarixi bilan yaqindan tanishish va mumtoz maqom sehdan bahramand bo‘lish imkonini beradi.

Uy-muzey Yunus Rajabiyning boy musiqiy merosi, bolaligi o‘tgan maskanni bugungi kun kishilarining ko‘z oldida jonlantirish hamda Toshkent tarixi sahifalarini yoritishga xizmat qilishi bilan beqiyos ahamiyatga ega.

“Har qanday buyuklik zamirida o‘ziga xos samimiyyat mujassam”, deydlar. Yunus Rajabiy



hayoti va ijodi bunga yorqin misol. Ulug‘ ijodkorning uy-muzeyi ziyoratida bo‘lgan yoxud kuylarini tinglagan kishi bunga yana bir ishonch hosil qilishiga — qalbi rajabiyona teranlikka oshno tutinishiga shubha yo‘q.

Darhaqiqat, O‘zbekiston xalq artisti, bastakor, xonanda va sozanda, akademik Yunus Rajabiy serqirra ijodiy faoliyati bilan o‘zbek milliy musiqasi tarixida o‘chmas iz qoldirgan. U, avvalo, keng jamoatchilikka o‘tkir shirali ovozi bilan tanildi. Keyinchalik xonandalikni

bastakorlik bilan birga olib borgan san‘atkor o‘zbek musiqali drama janrida samarali ijod etib, kuy va qo‘shiqlar, raqs kuylari, xor asarlarini yozdi. O‘zbek san‘atida hali notalar yozuvi mavjud bo‘lmagan bir davrda xalq qo‘shiqlari va navolarini notaga kiritish hamda bastalash orqali ularni yo‘qolib ketishidan saqlab qoldi. Milliy musiqiy madaniyatimiz va maqom san‘ati rivojiga ulkan hissa qo‘shdi.

Abadiyat chorrahasidagi uy

Yunus Rajabiy uy-muzeyi 1997-yilda bastakorning o‘g‘li Hasan Rajabiy tomonidan tashkil etilgan. Muzei Toshkent shahri



Yakkasaroy tumanida joylashgan. Yunus Rajabiy 1956-yildan to 1976-yilga qadar, ya‘ni umrining oxirgi yigirma yilini aynan shu manzilda o‘tkazgan.

Muzeining umumiy maydoni 484 kvadrat metr, ko‘rgazma maydoni 181 kvadrat metrni tashkil qiladi. Mazkur muzey binosi ikki qavatli bo‘lib, binoning old tomoniga Yunus Rajabiyning haykali o‘rnatilgan. Muzeйда 7 ta — “Memorial xona”, “Yoshlik yillari xonasi”, “San‘at xonasi”, “Shashmaqom” xonasi, “Abadiyat xonasi”, “Fotoko‘rgazmalar xonasi”, “Ma‘ruzalar xonasi” mavjud. Ushbu xonalarda san‘atkor va uning oila a‘zolari ishlatgan turli buyum va ashyolardan iborat 6600 dan ziyod eksponat, bastakor qalamiga oid 3 mingga yaqin qo‘lyozma, qariyb 1000 ta kitob, 60 ga yaqin musiqa asbobi, fotosuratlar joy olgan. Ularning har biri o‘z tarixi va qiymatiga ega.

Ekspozitsiyadagi XIX asr boshlarida tanbur chizig‘ida o‘zbek maqomlarining Komil Xorazmiy tomonidan yozilgan eskicha nota yozuvi kitobi, Yunus Rajabiy o‘zi chalgan nay hamda pianino, Yunus Rajabiy yozgan 12 jildli kitob qo‘lyozmalari, 5 jildli “O‘zbek xalq musiqasi”, 6 jildli “Shashmaqom”, “Musiq

kiyim-boshlari, konsert kiyimlari, o‘zbek xalq cholg‘u sozlari kolleksiyasi, o‘z oilasi, ustozlari, shogirdlari va safdoshlarining moybo‘yoqda ishlangan portretlari, fotosuratlari uy-muzeining noyob eksponatlari hisoblanadi.

Muzeйда maxsus zal bo‘lib, u o‘zbek maqomiga bag‘ishlangan. Unda O‘zbekiston musiqa madaniyati tarixiga doir nodir hujjatlar, qo‘lyozmalar, rasmlar bor. Bu yerd



O‘lmas Umarbekov shunday xayrli ishlarga bosh edi) “Mana shu uy ham muzey bo‘lishi kerak”, deb o‘tib ketgan, — deya xotirlaydi Yunus Rajabiyning o‘g‘li, O‘zbekiston xalq hofizi Hasan Rajabiy. — Bu fikr menga ham ma‘qul keldi. Ulug‘ xonadon biz uchun qanchalik qadrl

Gurlan shahridan ashulachilar, sozandalar tashrif buyurganda otamiz ularni ijodxonasida kutib olardi. Soz chalib berishsa yoki ashula aytishsa, shuni darhol notaga olardi. Tasavvur qilyapsizmi, jarayonning o‘zida notaga olaverardi.

Muzeydagi antiqa buyumlarning aksariyati otamga muxlislari, shogirdlari tomonidan sovg‘a qilingan. Bir kuni shogirdi Berta Davidova xo‘roz haykalchasini olib keladi. Otamizga uzata turib, bunday hazilnmo gap qiladi:

— Yunus aka, siz bu sohada xo‘rozsiz, men esa tovuqman.

Bir oz hayratlanib turgan otam shogirdining soddaligidan sharaqlab kulib yuboradi.

E‘tibor bilan qaralsa, muzeyda kitoblar nihoyatda ko‘p. Aslida, bular jami kitoblarning yuzdan biri ham chiqmas. Saralab, did bilan o‘qisada, nihoyatda ko‘p mutolaa qilardi.

Ushbu dargohni ziyorat etar ekansiz, qadamlaringizga monand barhayot navolar — o‘zbek, tojik, uyg‘ur maqomlari, ozarbayjon, arman tagilari, hind ragalari yangrab turadi. Muzeining bir xonasida Toshkentning Chaqar mahallasidagi Yunus Rajabiy tug‘ilib o‘sgan uyning mitti maketi, mahallaning fototasviri, o‘sha uyda ishlatilgan uy-ro‘zg‘or buyumlari, onasining portreti, so‘zana, san‘atkor zamondoshlarining fotosuratlari joylashgan.

Ikkinchi qavatga chiqqaverishda rassom Sobir Rahmetov tomonidan yaratilgan betakror kartina osilgan. Birinchi xonada Yunus Rajabiyning hayoti va ijodi, oila a‘zolari tasvirlangan fotosuratlar, hujjatlar namoyish etilgan. Ikkinchi xonada kompozitorning kutubxonasi jamlangan ishchi xonasi o‘z holicha saqlangan. Mazkur xonada sohir ovozi

Uy-muzeining “Yoshlik yillari” bo‘limidagi kashkul-chelak (Yunus Rajabiy oilasida ishlatilgan), shahodatnoma (Yunus Rajabiy Toshkent musiqa texnikumida o‘qigani haqida), “Bahor” musiqiy asari qo‘lyozmasi, 1926-yilga tegishli, Yunus Rajabiyning Samarqandda mashhur hofizlar va sozandal

etilishida bir guruh san‘atkorlarning imzosi qo‘yilgan sahifalar kabi noyob buyumlar tashrif buyuruvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi.

Ushbu muzey Toshkentdagi eng ko‘zga ko‘ringan, ishini yaxshi tashkil etgan, juda ko‘p sonli tomoshabinlarga xizmat qiladigan, yaxshi ekskursiya ishlari

Sohir ovoz sohibi

1897-yil Toshkentning Chaqar mahallasidagi bog‘bon Rajab ota hovlisida chaqaloq dunyoga keladi. Unga Yunus deb ism qo‘yishadi. Rajab ota asli bog‘bon bo‘lsa-da, juda serzavq, san‘atni jon-dildan xush ko‘radigan kishi edi. U o‘g‘lini yoshligidan turli yig‘inlarga, davralarga olib borar, jajji Yunus esa sozanda va xonandalar ijrosidagi diltortar kuy va qo‘shiqlarni maroq bilan tinglab, o‘rganishga harakat qilardi. Yunus Rajabiy dastlab akasi Rizqi Rajabiyni ergashib, dutorda kuylar mashq qila boshlaydi.



Keyinchalik esa andijonlik Mirzaqosim hofizdan Toshkent va Farg‘ona vodiysida ayladigan maqom parchalarini tinglab o‘rganadi va dutor chalib ashula ayt

shunday degandi: “Biz Samarqandda to‘rt yil turdik, soz chaldik, ashula va qo‘shiqlar aytidik. Hoji Abdulazizning ashula yo‘llarini o‘rgandik. “Shashmaqom” yo‘llari bilan shu yerda tanishdik. Xullas, Hoji Abdulaziz bizga ustoz bo‘lib qoldi”.

1924-yilda Hoji Abdulaziz Yunus Rajabiyni Buxoroga olib boradi va u yerlik bilimdon ustozlar Ota Jalol, Usta Shodi Azizov, Qori Kamol, Qori Najim, Abdusaid Begijon singari tanilgi maqom ustalari bilan tanishtiradi.

Maqom ashulalari, kuylari uning hayoti mazmuniga aylanadi. Endi u tunlari bilan mijja qoqmay, yodida saqlab qolgan xalq kuylarini oz-ozdan notaga sola boshlaydi. U bu kuylarni shunchaki ko‘r-to‘rona notaga tushiravermas, har bir musiqa asarini qayta o‘zlashtirib, o‘zining ijrochilik va bastakorlik tajribasiga suyanib ish ko‘rardi. Akasi Rizqi Rajabiyning aytishicha, bastakor olti yuzga yaqin kuy, ashula va qo‘shiqni yoddan bilgan. 1937-yilda chop etilgan “O‘zbek xalq qo‘shiqlari”ning ikkala jildiga bastakorning turli janrlardagi notaga olgan xalq kuylari, ashula va qo‘shiqlari kiritildi. Uning repertuaridagi “Ushshoq”, “Talqini bayot”, “Bayot 1”, “Koshki”, “Girya 1”, “Chorgoh 1”, “Qalandar 1”, “Adoyi 1-2”, “Ko‘chabog‘i 1-2” kabi o‘nlab ashulalar xonanda tomonidan yuksak mahorat bilan ijro etilib, unga katta shuhrat keltirdi.

Shuningdek, “Eshvoy”, “Kurd”, “Qalandari”, “Shahnozi gulyor”, “Qaro ko‘zim”, “Dugohi Husayniy”, “Chorgoh”, “Miskin”, “Nasrulloiy” kabi maqomlar hamda u tiklagan “Subhidam”, “Yolg‘iz”, “Sayqal”, “Segoh”, “Dugoh” va boshqa o‘zbek xalq kuy va ashulalari tinglovchilar qalbini hamon hayajonga solib, yuraklarni to‘lqinlantirib kelmogda.

Hassos san‘atkorning sa‘y-harakatlari o‘laroq, 1939-yilda Romanovskaya va Anvar Akbarov tomonidan tuzilgan “O‘zbek xalq qo‘shiqlari” to‘plamiga u notaga olgan 29 ta ashula va xalq qo‘shig‘i kiritilgan. Bir zum ham i

Bastakor musiqali drama teatrlari uchun ham bir qator opera va kuylar yaratdi. Masalan, Xurshidding “Farhod va Shirin”, Abror Hidoyatovning “Avaz” spektakllariga xalq ashulalari asosida kuylar bastalagan bo‘lsa, keyinchalik Sobir Abdulla va Chustiyning “Qo‘chqor Turdiyev”, Boris Nadejdin bilan hamkorlikda Amin Umiyari va Uyg‘unning “Qasos”, Georgiy Mishel bilan hamkorlikda Hamid Olimjonning “Muqanna” singari bir qator dramalarga kuylar yozib, o‘zbek musiqali drama janri shakllanishiga o‘z hissasini qo‘shdi.

Atoqli bastakor, akademik Yunus Rajabiy O‘zbekiston televideniysi va radioeshittirish qo‘mitasi huzurida “Maqom” ansamblini tashkil etdi hamda badiiy rahbari sifatida uzoq yillar faoliyat ko‘rsatdi. Bugungi kunda bu ansambl uning muborak nomi bilan ataladi. Bundan tashqari, Jizzax musiqali drama teatriga va Toshkent musiqa pedagogika bilim yurtiga, Toshkentdagi markaziy ko‘chalarning biriga hamda Toshkent metropoliteni bekatlaridan biriga uning nomi berilgan.

Rajabiyona teranlik

Uy-muzey bo‘yicha jami 14 ta vitraj bor. Hammasini musavvir Alisher Mirzo chizgan. Barchasi san‘at bilan bog‘liq ramzlardan, timsollardan tashkil topgan. Tashrif buyuruvchilar bu yerda shaxmat ko‘p ekanini payqaydi. Avval ularning soni qirqtdan ortiq bo‘lgan. Ijodkor ularni tanishlariga, birodarlariga sovg‘a qilib yuborgan. Yunus Rajabiy qayerga borsa, shaxmatga aloqador nimadir olib kelardi. Masalan, Hindistondan bir santimetrl

Uy-muzey falsafasi shundan iboratki, u bir insonni yodga olishni rasmiy tantana darajasidan tushirib, kundalik hayot sathiga olib chiqadi. Shu yerda buyuklik soddalashadi, soddalik esa muqaddaslikka aylanadi.

Uy-muzeylarga kirishingiz bilan bu yerda vaqt tushunchasi ham o‘zgaradi. Kecha, bugun va etarning chegaralari “yupqalashadi”. Yana bir muhim jihat: uy-muzeylar davlat muzeylaridan farqli o‘laroq, shaxsiy xotiraga tayanadi. U “katta tarix”ni “kichik hayot” orqali anglashga undaydi. Mafkura kabi tushunchalar ikkinchi darajada qolib, oldinga laki ko‘chgan choynak, eski daftar, uniqib ketgan kiyim, oq-qora surat chiqadi. To‘g‘ri, bu buyumlar buyuk g‘oyalarni tashimas, biroq o‘sha g‘oyalar ichida yashagan insonning haqiqiy qiyofasini ko‘rsatadi. Ilmiyroq qilib aytganda, uy-muzey — abstrakt tarixga qarshi qo‘yilgan konkret hayot belgisi, jamiyat xotirasining moddiylashgan shakli. Ajdodlarimiz merosini o‘rganish, yoshlarni tarix, adabiyot va san‘atimizga hurmat, milliy qadriyatlarimizga sadoqat bilan tarbiyalashda aynan ularning faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar Bosh muharrir: MUASSIS: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi	Bosh muharrir: Salim DONIYOROV	Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-246. 30829 nusxada bosildi. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.	Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova Musahhih: Nasiba Abdullayeva Dizayner: Xurshid Abdullayev Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy
Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05				